

**BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI**

Tovboyeva Nasiba Qulmatovna

Jizzax viloyati Baxmal tumani

79- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darslarga qiziqtirish orqali ularning darsdagi doimiy faoligini ta‘minlaymiz. Bu yo‘lda bizga zamonaviy interfaol metodlar ko‘mak beradi: Videotopishmoq, "Charxpalak"metodi," Bu kim didaktik o‘yini, "Qalin va ingichka savollar" metodlari

Abstract: The role of modern pedagogical technologies in teaching primary school students is incomparable. By making primary school students interested in lessons, we ensure their continuous activity in the lesson. In this way, modern interactive methods will help us: Videofinding, "Charkhpalak" method, "Who is it" didactic game, "Thick and thin questions" methods.

Аннотация: Роль современных педагогических технологий в обучении младших школьников бесценна. Заинтересовывая учащихся начальных классов уроками, мы обеспечиваем их постоянную активность на уроке. В этом нам помогут современные интерактивные методы: Видеопоиск, метод «Чархпалак», дидактическая игра «Кто это», методы «Толстые и тонкие вопросы».

Kalit so‘zlar: Zamonaviy texnologiya, "Charxpalak"metodi, Videotopishmoq, "Bu kim?" didaktik o‘yini," Qalin va ingichka" metodlari

Key words: Modern technology, "Charkhpalak" method, Video finder, "Who is this?" didactic game "Thick and thin" methods

Ключевые слова: Современные технологии, метод «Чархпалак», Видеопоиск, «Кто это?» Методика дидактической игры «Толстый и тонкий».

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘lim va tarbiyasi pedagoglarning oliv maqsadidir. Chunki maktab ta‘limining poydevori boshlang‘ich ta‘limdan boshlanadi. O‘quvchilarning har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalashda pedagoglarning pedagogik mahoratlari muhim rol o‘ynaydi.Ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.Bunda interaktiv va interfaol metodlarning o‘rni beqiyos.

"Videotopishmoq" metodi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: o‘quvchilar e’tiborigao‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi; o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi.Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o‘quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.[1]

“Charxpalak: metodi. Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega.“Charxpalar”metodi o‘quvchlarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezligi aniqlanadi.

“Bu kim?” didaktik o‘yini. Bu o‘yinida berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. “Bu kim?” o‘yinida rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ushbu o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. [2,346]

Yana bir samarali metodni ko'rib chiqamiz:“Kungaboqar”. O'quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bolinadi. Oqituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, ortaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni osha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qoyadilar. Bu uslubdan otilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash

va takrorlash hamda o'quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.[3]

“Qalin va ingichka savollar” metodi. Ta’lim jarayonida savollardan foydalanishda ularni ikki turga: oddiy va murakkab savollarga ajratish qabul qilingan.Bunda oddiy savollar “ha” yoki “yo‘q” yoxud boshqa birorta so‘zlar bilan javob berish mumkin bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga qisqa yoki ixcham obrazli qilib esa, ingichka savollar deb ham atash mumkin. Murakkab savollar ularga bir nechta so‘zlar, iboralar, gaplar yoki tegishlicha bayon qilish, tushuntirish bilan javob berish lozim bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga to‘liq yoki yoyiq obrazli qilib esa, qalin savollar deb atash ham mumkin. Shunga ko‘ra ushbu «Qalin» va «ingichka» savollar metodining nomini boshqachasiga «To‘liq» va «qisqa»

«Yoyiq» va «ixcham» savollar metodi deb ham atash mumkin. Bu metoddan o‘quvchining o‘zlashtirishini tezkor nazorat qilish hamda faolliklarini oshirish maqsadlarida mashg‘ulotning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi darsning mavzusiga tegishli «Qalin» va «ingichka» savollar jadvalini oldindan tuzib olishi kerak.[4,39]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2019/11/27/boshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F11%2F27%2Fboshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari>
2. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 21-son,Gulamova Dilrabo Mirmannonovna, BOSHLANG‘ICH 1-4- SINFLARDA O‘QUVCHILARNING ZAMONAVIY YANGI METODLAR BILAN BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKA HOSIL QILISH ORQALI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH, 346-b
3. <http://kompy.info/swot--tahlil-metodi-talim-tizimida-eng-kop-qollanadigan-va-yax.html?page=4>
4. Talqin va tadqiqotlar, №4 2022, Madiyorova Shohista Sabirjonovna,Otamuratova Intizor Komilovna, TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI, 39-b.